

## FARZAND TARBIYASI BO'YICHA DONISHMANDLAR FIKRLARI

**Bayzakova Gulnar Yerkinbayevna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri*

*42-sonli maktab tarbiya fani o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** *odob-ahloq, ma'suliyat, tarbiya, farzand.*

**Ключевые слова:** *манеры, ответственность, воспитание, ребенок.*

**Key words:** *manners, responsibility, education, child.*

Farzand muqaddas oila me'vasidir . Har bir ota-ona farzandining barkamol voyaga yetishishini va uning muvaffaqiyatlarga erishishini ko'rishni niyat qiladi. Farzand tarbiyasida ota-onaning va yashash muhitining ahamiyati katta. Donishmandlarning , ulomalarning asarlaridan farzandlar tarbiyasi bo'yicha oltinga teng mulohazalarni, fikrlarni olishimiz mumkin.

Qobil farzand ota –ona hurramligining sarchashmasi , barcha xursandchiliklar sababchisi, mamlakat mamurligining zaruriy omili. Aksincha noqobil farzand odamiylik mulkining xarobasi, ota-ona umrining zulmati, jamiyat taraqqiyotining tug'onog'idir. Bas, shunday har bir ota-ona uchun farzand tarbiyasi yo'lida ranj chekmoq, hayotini ushbu yumushga safarbar etmoq, dunyo ishlarining sharaflisi, zalvorli vazifalarining sarbalandi hisoblanadi. Zero, oqil va qobil , ma'nau va jismonan barkamol farzand tufayli ota-ona ko'ngli nurafshon , olam charog'on bo'lib yurt yuksaladi, jamiyat ravnaq odamzot qadr topadi. Shu ma'noda ota-bobolarim , ustozlarimdan eshitgan pand-u nasihatlar, yaxshi insonlardan olgan ibrat-u saboqlar, hayotkeshmishlaridan orttirgan tajribam o'qiganlardan uqqanlarimni jam qilg'an holda xayrli niyatlarni bilan aziz dilbandim ,sening qalbinga yuzlandim. Marhamat tingla, mushoda et, saboq chiqar.....(I. 12.b)

Albatta farzand oqil va odobli bo'lsa bu ota-onaning yaxshi ta'rbiya berganidan darakdir. Farzand bu oila ko'zguvidir, oilada qanday ta'lim-tarbiya hukmron bo'lsa, bu farzand yurish turushi va odobida o'z aksini topadi. Zero qush uyasida ko'rganini qiladi.

Yaxshi farzand ota-onaning bebaho mulki , qalb gavhari, muborak siri va ulkan kashfiyoti uning kamolida ota-onaning ko'ngli nurafshon bo'ladi, hayoti zavq-shavqqa to'ladi. Bu sharafiga ega bo'lganlar hurmat va izzat tojini kiyadilar , dunyo donishmandlariga aylanadilar. Aksincha noqoqbil farzandning nojo'ya hatti-harakatidan ota-onaning qaddi bukiladi, dili ozor chekadi tarbiyada yo'l qo'ygan xatosi oqibatidan pushaymonlik dardiga giriftor bo'ladi. Al-oqibat, tirikligidayoq ularning hayoti do'zoxga aylanadi.(I . 8b )

Ma'sullik-ongli faoliyatning zaruriy sharti sanaladi. Huddidunyoni yoritganidek , ma'sullik tiyg'usi ham inson nomini bezaydi, martabasini yuksaltiradi. Bashariyat uchun g'oyatda tahlikali bo'lgan mushkul vaziyatlarda ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan kishigina haqiqiy yurtparvar, elparvar hisoblanadi. bu toifaning dovyurakligi va jasoratidan butub

jamiyat faxr hissini tuyadi, ibrat oladi, uning ortidan ergashadi. U o'z ezgu amallari orqali kishilarni soadat manziliga eltuvchi sobit yo'l boshchi hamdir. (I. 16 b)

Inson kamolotida ma'suliyatning o'rni juda ahamiyatlidir. Bu yuqoridagi fikrlarda ham o'z aksini topgan. Bu xislar farzandning kelajak yo'lida muvaffaqiyatlarining garovidir ham. Ma'suliyatli farzand o'z hatti-harakatiga, so'zlariga e'tiborli va javob beradigan bo'lib voyaga yetadi.

Yusuf Hos Hojib o'z davrining yetuk faylasufi, olimi fozili, davlat orbobi, fan va madaniyat homiysi hayotning eng mayda ikir-chikirlaridan tortib, osmon jisimlarining sirlarigacha tushunib yetgan barkamol kishi. Albatta uning dunyo qarashi fanning turli sohalaridagi tushunchasi, hayotni bilishi, o'sha davr va ijtimoiy tuzum shart-sharoitlari bilan chegaralangan. Yusuf o'z zamonasidan shikoyat qiladi, adolat, insof yo'qalغانidan zorlanadi, u ideal insonga, ideal jamiyatga intiladi, uning targ'ib qiladi, ammo uning ideali na'munasi o'tmish hayot zamonlaridir Yusuf ana shu o'tmishni ideallashtiradi:

Hali bir kishi ersamiz ey bugu

Ularig' szzigsiz farishta tegu. (II. 15-16 b)

Oila bu-jamiyat asosidir va bu asosda uning tarkibini tuzuvchi va kelgusida yangi oilaga asos soluvchi, avlod davomchilari bo'lmish farzandlar o'sib-ulg'ayadi. Bu farzandlar fozil bo'lsa, jamiyat ham obod bo'ladi.

Farzand yo'naltirilgan investitsiya ta'lim tarbiya, bilim, kasb-hunar vaqtlari o'tib o'z me'vasini beradi. Bu me'va farzandning xulqida, odobida mehnatsevarligida namoyon bo'lib boradi. (I. 35b)

Hayotda shunday yomon xulqli tarbiyasiz farzandlar borki, ularning ta'biyati xulq – atvoriga mos ayrim jihatlarini bilmog'ing joizdir. Yomon xulqli farzandlarni faqmlash qobiliati zaif bo'lib qulog'l kar, idrok etish iqtidori so'ngan, insoniylik fazilatidan yiroq, mehr ko'zi yopiq, loqayd va noshud toifa erur. Yomon xulqli farzandning do'stlari-yolg'onchi, noshukur, bekorchi, suhbatdoshi-hasadgo'y, hiyonatkor; malihatgo'yi-johil kimsalar. Va nihoyat ularning bu hayotdan topadigani- ota-onalarini norozi qilib, el nazaridan qolishidir. (I. 35b)

Yomon farzand kecha-kunduzni rohat-farog'at, davru-davron imkoni deb biladi va shu aqidaga amal qilib umrguzoronlik qiladi... Yaxshi farzand kecha va kunduzni tarbiya soati deb biladi va undan unumli foydalanishga harakat qiladi.

#### **REZYUME:**

Ushbu maqolada farzand tarbiyasi uchun kerakli fikr-mulohazalar, Y.H.Hojibning "Qutadg'u bilik" asaridagi nasihatlar, O.Mamuhovning "Farzandnoma" asaridagi farzand tarbiyasidagi aytilgan dono fikrlari haqidadir.

#### **РЕЗЮМЕ:**

В этой статье о необходимых для воспитания ребенка мнениях, советах из произведения Ю.Х.Хаджиба «Кутадгу билик», и мудрых мыслях о воспитании ребенка из произведения О.Мамухова «Фарзаннома».

#### **SUMMARY:**

In this article, about the opinions necessary for raising a child, advice from the work of Yu.Kh. Khadhib "Kutadgu bilik", and wise thoughts about raising a child from the work of O. Mamukhov "Farzanoma".

**ADABIYOTLAR:**

- 1.O.Mahmudov''Farzandnoma''-Toshkent-2020
- 2.Y.H.Hojib'' Qutadg'u bilik''-Toshkent-1971